Xalqaro miqyosda Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JST) hisob-kitoblariga ko'ra, kam va o'rta daromadli mamlakatlarda muomaladagi tibbiy mahsulotlarning kamida 10,5 foizi sifatsiz yoki qalbakilashtirilgan, ushbu mamlakatlar bunday mahsulotlarga har yili taxminan 30,5 milliard AQSH dollari sarflaydi. Sifatsiz va qalbakilashtirilgan tibbiy mahsulotlar global tahdid sifatida JST tomonidan qayd etilmoqda (World Health Organization, 2024). Mahsulot javobgarligi sug'urtasi bozori 2024-yilda 10,55 mlrd dollarni tashkil etgan va 2033-yilga borib 17,45 mlrd dollarga

yetishi tahmin qilinmoqda (Verified Market Reports, 2024).

Mahsulot javobgarligi nazariyasining fundamental asoslari M.A. Gaystfeld tomonidan “Strict Products Liability 2.0” maqolasida (Geistfeld, 2020) va “Principles of Products Liability” monografiyasida (Geistfeld, 2020), shuningdek, J.C.P. Goldberg va B.C. Zipurski tomonidan “The Easy Case for Products Liability” maqolasida va “Recognizing Wrongs” monografiyasida ishlab chiqilgan (Goldberg & Zipursky, 2020). Yevropa kontekstida G. Xauells va K. Tvigge-Flesner (Howells & Twigg-Flesner, 2024), K. Xojis (Hodges, 2014), G. Vagner (Wagner, 2002) tadqiqotlari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Farmatsevtika sohasidagi nemis maxsus rejimi A. Shpikhof va E. Doych tomonidan “Medizinrecht” monografiyasida tizimli tahlil qilingan (Deutsch & Spickhoff, 2014). Aybsiz kompensatsiya tizimlari V. Ulfbek, M. Xartlev va M. Shuls (Ulfbeck et al., 2012) hamda M. Mello ishlarida o‘rganilgan. Sun‘iy intellektning farmatsevtikadagi javobgarlik masalalariga ta‘siri W. Prays II, S. Gerke va I. Koen tadqiqotlarida yoritilgan (Price et al., 2022). Rossiya farmatsevtika huquqi A. Moxov tomonidan mustaqil tarmoq sifatida nazariy asoslangan (Mokhov, 2017). O‘zbek huquqshunosligida farmatsevtik javobgarlikning maxsus tahlili amalda yo‘q, bu ushbu maqolaning ilmiy yangiligini ta‘minlaydi.

Metodlar

Maqolada quyidagi ilmiy bilim metodlari qo‘llanilgan. Qiyosiy-huquqiy metod – O‘zbekiston, Germaniya, AQSH, Fransiya, Shvetsiya, Yaponiya va Rossiya farmatsevtika javobgarlik rejimlarini taqqoslash uchun (functional comparative law). Tarixiy-huquqiy metod 1957–1961-yillardagi *Contergan/Talidomid* fojiasidan 2024-yilgacha bo‘lgan farmatsevtika javobgarligi institutining evolyutsiyasini kuzatish uchun. Formal-yuridik (dogmatik) metod O‘zbekiston Fuqarolik kodeksining zararni qoplash bilan bog‘liq bo‘lgan moddalari (Republic of Uzbekistan, 1997), “Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to‘g‘risida”gi 2016-yil 4-yanvardagi O‘RQ–399-son Qonun (2024-yil 30-may O‘RQ-928 bilan o‘zgartirilgan) (Republic of Uzbekistan, 2016), 2026-yil 5-maydagi Prezident Farmonlari va qarori (President of Uzbekistan, 2026a, 2026b, 2026c), Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-aprel 185-son qarori, Oliy sud Plenumining 2000-yil 28-aprel 7-son qarori

normalarini tadqiq qilish uchun ishlatildi. Kazuistik metod – *Vioxx* (Merck MDL 1657, 4,85 mlrd USD), *Mediator* (Servier, 415 mln €), *Doc-1 Max* (Toshkent, 75,6 mlrd so‘m), *Zantac* (GSK 2,2 mlrd USD), *Purdue Pharma* (7,4 mlrd USD) ishlari tahlil qilish uchun qo‘llanildi. Statistik metod – IQVIA, Proxima Research, HRSA, WHO ma‘lumotlari umumlashtirish uchun foydalanildi.

Natijalar

Mahsulot javobgarligi doktrinasining asosi va qat‘iy javobgarlik instituti. Zamonaviy farmatsevtika javobgarligi instituti tarixiy jihatdan ikki to‘lqin ta‘sirida shakllangan. Birinchisi, Kaliforniya Oliy sudi sudyasi R. Treynor tomonidan yozilgan *Greenman v. Yuba Power Products, Inc.* (59 Cal. 2d 57, 377 P.2d 897) ishi bo‘lib, unda ifodalangan klassik formulaga ko‘ra, ishlab chiqaruvchi keyingi tekshiruvlarsiz iste‘molchiga yetib borgan nuqsonli mahsulot keltirgan zarar uchun aybsiz delikt javobgarligini (qat‘iy javobgarlikni) zimmasiga oladi. Bu qoidaning farmatsevtika javobgarligi uchun kontseptual ahamiyati shundaki, u shartnomaviy kafolat (warranty) konstruksiyasidan to‘g‘ridan to‘g‘ri delikt javobgarligiga, mas‘uliyatni iste‘molchidan ishlab chiqaruvchiga o‘tkazadi.

M. Gaystfeld o‘zining “Strict Products Liability 2.0” tushunchasida (Geistfeld, 2020) zamonaviy AQSh sudlari “consumer expectations” testi va “risk-utility” testini birlashtirgan kompleks rejim qo‘llashlarini asoslagan. *Restatement (Third) of Torts: Products Liability* esa nuqsonlarning uch tiplik tasnifini: ishlab chiqarish nuqsoni (manufacturing defect), loyihaviy nuqson (design defect), ogohlantirmaslik (failure-to-warn defect) taklif etgan (American Law Institute, 1998). Goldberg va Zipurskilarning fikricha, qat‘iy mahsulot javobgarligi iqtisodiy samaradorlik nuqtayi nazaridan emas, balki “civil recourse theory” fuqaroviy qarshi javob nazariyasi orqali oqlanadi: jabrlanuvchi sud orqali nuqsonli mahsulot ishlab chiqargan kompaniyaga qarshi himoyalangan da‘vo huquqiga ega bo‘lishi kerak (Goldberg & Zipursky, 2020). Yevropa Ittifoqining 2024/2853-sonli yangi direktivasi. 2024-yil 23-oktabrda Yevropa Parlamenti va Kengashi-ning nuqsonli mahsulotlar uchun javobgarlik to‘g‘risidagi (EU) 2024/2853-sonli direktivasi qabul qilindi va 2024-yil 18-noyabrda *Official Journal of the European Union*da nashr etildi.

Direktiva 2024-yil 8-dekabrda kuchga kirdi va 1985-yildagi 85/374/EEC direktivani 2026-yil 9-dekabrda boshlab bekor qiladi. A'zo davlatlar transpozitsiya uchun shu sanagacha vaqtga ega (European Medicines Agency, 2024).

Direktiva farmatsevtika sohasi uchun beshta tub yangilik kiritadi. Birinchidan, "mahsulot" tushunchasi 4-moddada kengaytirilgan: dasturiy ta'minot (jumladan, sun'iy intellekt tizimlari), raqamli ishlab chiqarish fayllari va raqamli xizmatlar endi mahsulot maqomini oladi. Ikkinchidan, javobgarlikning subyektlar doirasi 8-moddada kengaytirildi: ishlab chiqaruvchi YI hududidan tashqarida bo'lsa, javobgarlik kaskadli tarzda importchi – vakolatli vakil – fulfillment xizmati provayderi – onlayn platforma operatori bo'yicha o'tadi. Mahsulotni "muhim darajada o'zgartirgan" har qanday shaxs ham qat'iy javobgarlik subyekti hisoblanadi.

Uchinchidan, isbot yuki qat'iy yengillashtirildi (10-moddada). Sud quyidagi hollarda nuqsonni va sababiy bog'liqlikni prezumpsiya qiladi: (a) sudlanuvchi sud talabiga binoan dalillarni oshkor etmasa; (b) majburiy xavfsizlik talablari buzilgan bo'lsa; (v) jabrlanuvchi mahsulotning texnik yoki ilmiy murakkabligi tufayli isbotlashda ortiqcha qiyinchilikka duch kelsa. Direktivaning 48-bandida tibbiyot mahsulotlari va innovatsion tibbiy uskunalar bunday qoidaning yaqqol misoli sifatida ko'rsatilgan (Niehoff & Hilger, 2025). To'rtinchidan, da'voni qo'zg'atish muddati standart 10 yildan, latent zarar holatida 25 yilgacha uzaytirildi (17-moddada). Beshinchidan, 1985-yil direktivada bo'lgan minimal zarar miqdori (€500) va maksimal javobgarlik chegarasi olib tashlandi.

Xauells va Twigg-Flesnerlarning (Howells & Twigg-Flesner, 2024) ta'kidlashicha, yangi direktiva "consumer-friendly regime" yaratadi. Ayni paytda, Germaniya o'zining 1978-yildan amal qilib kelayotgan *Arzneimittelgesetz* 84§ va undan keyingi paragraflarini saqlab qoladi, chunki 2024/2853 direktivaning 2(4)(d)-moddasi 1985-yilgacha mavjud bo'lgan milliy farmatsevtika javobgarlik rejimlarini saqlab qolish imkonini beradi (Taylor Wessing, 2025).

Germaniya tajribasi: *Arzneimittelgesetz* 84§ va Talidomid merosi. Germaniya farmatsevtika javobgarligi 1957–1961-yillardagi Talidomid (Contergan) fojiasidan keyin shakllangan: "Chemie Grünenthal" kompaniyasining uxlatuvchi vosita-

sidan qariyb 12 000 ga yaqin chaqaloq deformat-siyalar bilan tug'ilgan, taxminan 2 000 chaqaloq vafot etgan. Bu fojia 1976/1978-yilgi *Arzneimittel-gesetz* (AMG) qabul qilinishiga sabab bo'ldi.

AMG 84§ farmatsevtik tadbirkorga qat'iy javobgarlik (Gefährdungshaftung) yuklaydi: aybdorlikdan qat'i nazar, dori vositasi maqsadli foydalanishda kutilgan terapevtik foydadan yuqori darajadagi zararli ta'sir ko'rsatsa yoki etiketka, qo'llanma yoki Mutaxassis ma'lumotlari (Fachinformation) talablari buzilsa, korxona javob beradi. AMG 84-§(2) sababiyat prezump-siyasini joriy etadi: agar dori vositasi konkret holatda zararni keltirib chiqarish qobiliyatiga ega bo'lsa, sababiy bog'liqlik prezumpsiya qilinadi va isbot yuki ishlab chiqaruvchiga o'tadi. AMG 84a§ esa jabrlanuvchiga ishlab chiqaruvchi va regul-yator organdan ma'lumot olish huquqini beradi – bu hatto 2024/2853 direktivaning oshkor etish talablaridan ham ko'lamliroqdir (International Comparative Legal Guide, 2026). AMG 88-§ bo'yicha javobgarlik chegarasi bir holatda 600 000 yevro yillik renta, ko'p shaxslar zararlangan holda 120 mln yevro bilan cheklangan, va AMG 94-§ farmatsevtik tadbirkordan majburiy mas'uliyat sug'urtasini talab qiladi (Wagner, 2002). Bu nemis modeli farmatsevtikada qat'iy javobgarlik + isbot yukini yengillashtirish + majburiy sug'urta uchligini namoyon qiladi va o'zbek qonun chiqaruvchisi uchun eng yaqin va mantiqiy namuna hisoblanadi.

Skandinaviya modeli. Shvetsiya 1975-yilda dunyoda birinchilardan bo'lib Shifokor aybisiz bemorga yetkazilgan zararni qoplash sug'urtasi (no-fault patient injury insurance) tizimini joriy qildi va 1978-yildan dori vositalari uchun maxsus *Läkemedelsförsäkringen* sxemasi ishlay boshladi. Ulfbek va boshqalarning ta'kidlashicha, Skandinaviyada sug'urta asosidagi tizim oddiy delikt huquqi qoidalarini tibbiy huquqbuzarlik (malpraktis) ishlarida deyarli butunlay almashtirgan (Ulfbeck et al., 2012). Shvetsiya farmatsevtika kompaniyalarining 98 foizi bu sxema a'zosi: jabrlanuvchi nuqsonni isbot qilish o'rniga faqat dori vositasi va zarar o'rtasidagi sababiy bog'liqlikni ko'rsatishi yetarli, kompensatsiya esa standart jadvallar asosida hisoblanadi. Daniya 1992-yildan, Norvegiya 1998-yildan, Finlyandiya 1987-yildan, Islandiya 2001-yildan o'xshash sxemalar bilan ishlamoqda. Mungwira va boshqalarning JST miqyosidagi tah-

lilida 2018-yil holatida 25 yurisdiksiyada vaksina yoki dori uchun aybsiz (no-fault) kompensatsiya dasturlari mavjudligini aniqlagan (Mungwira et al., 2020).

AQSHda VICP va vaksina ishlab chiqaruvchilarining maxsus rejimi. 1986-yilda AQSH Kongressi Bolalikdagi vaksinalar tufayli yetkazilgan zararni qoplash to'g'risidagi milliy qonun (National Childhood Vaccine Injury Act –NCVIA) ni qabul qildi, chunki DPT vaksinasi bo'yicha sud da'volari shu darajaga yetdiki, ko'plab ishlab chiqaruvchilar bozordan chiqib keta boshladilar va vaksina ta'minoti xavf ostida qoldi. NCVIA asosida tashkil etilgan Vaksinalar tufayli yetkazilgan zararni qoplash milliy dasturi (National Vaccine Injury Compensation Program – VICP) har bir vaksina dozasi dan undiriladigan 0,75 dollarlik aksiz solig'i orqali moliyalashtiriladigan ishonch fondi (trust fund) mexanizmiga asoslanadi. HRSA ma'lumotlariga ko'ra, 1988-yildan boshlab VICPga 28 991 ta da'vo topshirilgan, ulardan 12 339 tasi qondirilgan; 2025-yil sentabriga qadar dasturning umumiy to'lovlari 5,4 mlrd dollarga yaqinlashdi (Health Resources and Services

Administration, 2025). Ayni paytda COVID-19 pandemiyasi davrida CICP orqali 13 764 ta da'vo-ning faqat 67 tasi qondirishga loyiq deb topilgan, bu CICPning VICPga nisbatan ancha samarasiz ekanligini ko'rsatadi.

Dori vositalarining nojo'ya ta'siridan jabr ko'rganlarga yordam ko'rsatish tizimi (Adverse Drug Reaction Sufferings Relief System). Yaponiyada 1980-yilda Talidomid va Kinoform (SMON) fojialari ortidan *Adverse Drug Reaction Relief System* tashkil qilingan. PMDA ma'lumotlariga ko'ra, 1980-yildan 2022-moliyaviy yili oxirigacha 29 014 nafar jabrlanuvchi nafaqa olish huquqiga ega bo'lgan (Pharmaceuticals and Medical Devices Agency, 2023). Bu tizim dori vositasini bozorga chiqarishga ruxsatnoma (marketing authorization) egalarining badallari bilan moliyalashtiriladi va aybdor sifatida emas, balki ijtimoiy javobgarlik (social responsibility) tamoyili asosida ishlaydi.

Yirik xalqaro farmatsevtika sudlov ishlari. Mahsulot javobgarligi institutining iqtisodiy o'lchami nihoyatda kattadir. Jadvalda eng yirik so'nggi farmatsevtika kelishuvlari taqdim etilgan.

Jadval

Yirik xalqaro farmatsevtika sudlov ishlari va kelishuvlari (2007–2025-yillar)

Ish nomi	Yili	Summa	Mohiyati
Vioxx (Merck) MDL 1657	2007	4,85 mlrd USD	60 000 ga yaqin yurak xuruji va insult, COX-2 inhibitor
Bextra (Pfizer)	2009	2,3 mlrd USD	Off-label marketing
Zantac (GSK)	2024	2,2 mlrd USD	80 000 da'vo, ranitidin / NDMA kanserogen (Fierce Pharma, 2024)
Mediator (Servier)	2023	415 mln € + 180 mln €	Benfluorex, 1 500–2 100 vafot, Paris apellyatsiya sudi
Doc-1 Max (Marion Biotech)	2024	75,6 mlrd so'm	68 nafar bola vafoti, Toshkent shahar sudi
Talc / Johnson & Johnson	2024	8 mlrd USD (taklif)	62 000+ tuxumdon saratoni da'vosi
Purdue Pharma / Sackler	2025	7,4 mlrd USD	Opioid epidemiyasi, OxyContin

Bu kelishuvlarning umumiy hajmi (taxminan 30 mlrd dollardan ortiq) shuni ko'rsatadiki, farmatsevtika javobgarligi institutining samarali ishlashi millardlab dollar miqyosidagi kompensatsiyalarni ta'minlay oladi. Ayni paytda, *Doc-1 Max* ishidagi 75,6 mlrd so'mlik (taxminan 6 mln AQSh dollari) zarar miqdori xalqaro standartlarga nisbatan juda kichik. Bu o'zbek modelida ma'naviy zarar (non-pecuniary loss) kompensatsiyalarining yetarlicha ishlamasligini ko'rsatadi.

EU 2020/1828 (kollektiv da'volar) va EU 536/2014 (klinik tadqiqotlar). 2020-yil 25-noyabrdagi 2020/1828-sonli direktiva (Representative Actions Directive) iste'molchilarning kollektiv manfaatlarini himoya qilish uchun "qualified entities" tomonidan injunktiv hamda zararni qoplash chorasini yo'lidagi vakillik da'volarini barcha a'zo davlatlarda ta'minlashni majbur qiladi (Council of the European Union, 2020). Italiya bu direktivani 2023-yil 28-son qonun

bilan transpozitsiya qildi; transchegaraviy ishlarda vakolatli subyekt ro'yxatini avtomatik tan olish mexanizmi ishlamoqda (DLA Piper, 2023). Bu O'zbekiston uchun farmatsevtika sohasidagi ommaviy delikt holatlarda qo'llaniladigan model bo'la oladi. *Doc-1 Max* holatida agar ushbu mexanizm mavjud bo'lganda, 86 ta jabrlangan oila bitta vakillik da'vosi orqali huquqlarini himoya qila olar edi. EU 536/2014-sonli klinik tadqiqotlar reglamenti 76-moddasi a'zo davlatlarni klinik tadqiqotlarda ishtirok etgan shaxslarga zarar yetkazilgan taqdirda kompensatsiya tizimi (sug'urta, kafolat yoki shunga o'xshash mexanizm) shaklida ta'minlashga majbur qiladi.

Sun'iy intellekt va farmatsevtika javobgarligi. AQSH FDA 2025-yil 7-yanvarda "Considerations for the Use of Artificial Intelligence to Support Regulatory Decision-Making for Drug and Biological Products" loyiha qo'llanmasini chiqardi va unda 7 bosqichli ishonchlilikni baholash tizimini (credibility assessment framework) taklif qildi (U.S. Food and Drug Administration, 2025). EMA esa 2024-yil 9-sentabrda CHMP/CVMP/83833/2023-sonli "Reflection paper on the use of Artificial Intelligence (AI) in the medicinal product lifecycle" yakuniy hujjatini qabul qildi; unda *risk-based* (riskka asoslangan) va *human-centred* (inson manfaati birinchi o'rinda turuvchi) yondashuv talab qilingan (European Medicines Agency, 2024). Price va boshqalarning ko'rsatishicha, SI tibbiyotda nafaqat shifokorlar va shifoxonalar, balki SI dasturchilari uchun ham javobgarlik manbaiga aylanmoqda (Price et al., 2022); 2024/2853 direktivaning SI tizimlarini "mahsulot" ta'rifiga kiritishi bu uch o'lchamli javobgarlikni huquqiy jihatdan amaliyotga tatbiq etadi.

Rossiya tajribasi va MDH. Rossiya Federatsiyasi fuqarolik kodeksining 1095–1098-moddalari mahsulot kamchiliklari uchun delikt javobgarligini tartibga soladi; 2010-yil 12-apreldagi 61-FZ "On circulation of medicines" qonuni esa Farmatsevtika regulatori (pharmaceutical regulator) funksiyalarini belgilaydi. 2019-yil 18-iyuldagi 191-FZ federal qonuni bilan birinchi marta jismoniy shaxslar tomonidan fuqarolik protsessual kodeksining 244.20-moddasi asosida jamoaviy da'volari kiritish imkoniyati paydo bo'ldi. A. Mokhov (2017) bunga "farmatsevtik huquq"ni alohida tarmoq sifatida shakllantirish kerakligi

haqidagi nazariy taklifini taqdim etgan. Rossiya tajribasining kamchiligi shundaki, jamoaviy da'vo mexanizmi ixtiyoriy rozilik modelida qurilgan va sust ishlamoqda. 2019-yildan beri farmatsevtika sohasida hech qanday yirik kollektiv da'vo qondirilgan emas.

O'zbekiston qonunchiligining mavjud holati va bo'shliqlar. O'zbekistonda farmatsevtika faoliyatini tartibga soluvchi asosiy normativ-huquqiy hujjatlar quyidagilardir: 2023-yil yangi tahriridagi Konstitutsiya, Fuqarolik kodeksining fuqarolik-huquqiy javobgarlik va zararni qoplash bilan bog'liq moddalari (Republic of Uzbekistan, 1997), "Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida"gi Qonun (Republic of Uzbekistan, 2016), 2026-yil 5-maydagi Prezident Farmonlari va qarori (President of the Republic of Uzbekistan, 2026a, 2026b, 2026c), Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-aprel 185-son qarori, Oliy sud Plenumining 2000-yil 28-aprel 7-son qarori, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 165¹-moddasi.

Mavjud rejimdagi asosiy bo'shliqlarni quyidagicha umumlashtirish mumkin. Birinchi, Fuqarolik kodeksining 1006–1022-moddalari sog'liqqa zarar yetkazish institutining umumiy normalarini belgilasa-da, farmatsevtik mahsulot uchun maxsus qat'iy javobgarlik (strict liability) rejimi yo'q. 1017–1020-modda "tovar yoki xizmatlarning kamchiligi tufayli zarar yetkazganlik uchun javobgarlik" mavzusiga bag'ishlangan, ammo dori vositasining xavfli xususiyatlari, yo'riqnomada ko'rsatilmagan holatlarda foydalanish, malakali mutaxassis doktrinasi kabi spetsifik holatlar tartibga solinmagan. Ikkinchi, isbot yuki to'liq jabrlanuvchining zimmasidadir. AMG 84(2)-§ ga o'xshash sababiyat prezumpsiyasi yoki AMG 84a-§ga o'xshash dalillarni oshkor etish huquqi mavjud emas. *Doc-1 Max* ishida bu kamchilik yaqqol namoyon bo'ldi, jabrlangan oilalar "Marion Biotech"ning ichki sifat nazorati hujjatlariga to'g'ridan to'g'ri kira olmagan.

Uchinchi, farmatsevtik tadbirkorlar uchun majburiy professional javobgarlik sug'urtasi mavjud emas (Germaniya AMG 94-§ da bu majburiy va minimal qoplash 120 mln yevro). Dorixonalar va distributorlarning fuqarolik javobgarligi sug'urtasi ham qonunda majburiy talab sifatida ko'zda tutilmagan. To'rtinchi, kollektiv da'vo (class action / representative action) instituti

rivojlanmagan. *Doc-1 Max* kabi ommaviy delikt holatlarida har bir oila alohida da'vo qilishga majbur. Bu jarayonni iqtisodiy jihatdan amalga oshirib bo'lmaydi. Beshinchi, klinik tadqiqotlar uchun majburiy sug'urta talabi yo'q (EU 536/2014 ga o'xshash mexanizm). Oltinchi, vaksina shikastlanishi uchun maxsus aybsiz kompensatsiya dasturi yo'q (AQSH VICP, Yapon PMDA, Skandinaviya Pharmaceutical Insurance kabi).

Muhokama

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, farmatsevtika javobgarligi instituti dunyoda uchta asosiy modelda rivojlanmoqda. Birinchi model kontinental nemis modeli (*Arzneimittelgesetz* 84-§) farmatsevtika mahsulotlari uchun maxsus qonunchilikka asoslangan qat'iy javobgarlik, sababiyat prezumpsiyasi, dalillarni oshkor etish huquqi, javobgarlik chegarasi va majburiy sug'urtadan iborat. Ikkinchisi, anglo-sakson modeli (AQSH *Restatement Third* va *Greenman* pretsedenti, *Vioxx/Zantac/Purdue* tipidagi MDL) qat'iy javobgarlikning sud orqali shakllanishi va ommaviy sud da'volari (mass tort/class action) instituti orqali ishlaydi. Uchinchi model Skandinaviya/Yaponiya *nou-fault* modeli (*Läkemedelsförsäkringen*, PMDA Relief System, AQSH VICP) sud yo'lini sug'urta asosidagi maxsus kompensatsiya jamg'armasi bilan almashtiradi. EI 2024/2853-sonli yangi direktivasi bu uch modelni ma'lum darajada uyg'unlashtiradi: u kontinental qat'iy javobgarlikni isbot yukini yengillashtirish va dalillarni oshkor etish bilan birlashtiradi.

Nemis modelining O'zbekiston uchun moslashuvi. O'zbekiston uchun amalda eng maqbul yo'l nemis modelining moslashtirilgan versiyasi, chunki: birinchidan, bizning fuqarolik huquqi an'anasi pandektik tizimga asoslanadi; ikkinchidan, "Marion Biotech" kabi xorijiy ishlab chiqaruvchilar holatlarida sababiyat prezumpsiyasi va dalillarni oshkor etish huquqi mahalliy importchi orqali xorijiy ishlab chiqaruvchini sudga jalb qilish imkonini beradi; uchinchidan, majburiy sug'urta tizimi farmatsevtika tarmog'ining moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi. 2026-yil 5-maydagi Farmonda (President of the Republic of Uzbekistan, 2026a) xususiy sektorning tibbiy xizmatlardagi ulushini 30 foizga yetkazish va transplantatsiya kabi yuqori xavfli faoliyat turlari bo'yicha kompensatsiya mexanizmlarini belgilash vazifasi xuddi shu

yo'nalishga to'g'ri keladi: xususiy sektor ulushi qancha katta bo'lsa, qat'iy javobgarlik va majburiy sug'urta tizimi shunchalik zarurdir.

Doc-1 Max ishining qiyosiy-huquqiy reinterpretatsiyasi. *Doc-1 Max* ishi qiyosiy-huquqiy tahlil uchun unikal materialdir. Agar Germaniya AMG 84-§ rejimi qo'llanilganda "Marion Biotech" avtomatik tarzda qat'iy javobgarlik subyekti bo'lar edi, chunki dietilen glikolning toksik miqdori me'yordan oshib ketgan; AMG 84(2)-§ sababiyat prezumpsiyasi qo'llanilar edi; AMG 84a§ asosida jabrlangan oilalar "Marion Biotech" va "Quramax Medical"dan ichki dalillarni so'rab olishlari mumkin edi; AMG 88-§ bo'yicha kompensatsiya hajmi har bir vafot etgan bola uchun 600 000 yevrolik renta darajasida bo'lar edi (jami $68 \times 600\,000 \text{ €} \approx 40 \text{ mln €}$ bu hozirgi 75,6 mlrd so'm $\approx 6 \text{ mln USD}$ dan 6-7 marta ko'p). Agar EU 2020/1828 vakillik da'vosi mexanizmi mavjud bo'lganda, Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyati tipidagi tashkilot 86 ta jabrlangan oila nomidan yagona da'vo qila olar edi.

Xulosa

Tadqiqot natijasida quyidagi asosiy xulosalar shakllantirildi.

Birinchidan, farmatsevtika faoliyati to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik instituti O'zbekistonda umumiy delikt huquqi normalari (FK 985, 991, 1006–1022-moddalari) doirasida ko'rib chiqilmoqda, biroq farmatsevtik mahsulotning maxsus xususiyatlari (xavf manbai, latent zarar, axborot asimmetriyasi, malakali mutaxassis doktrinasi) hisobga olinmagan. Taklif: Fuqarolik kodeksiga "Farmatsevtik mahsulotning kamchiliklari tufayli zarar yetkazganlik uchun javobgarlik" deb nomlangan yangi 1017¹-modda kiritish, unda *Arzneimittelgesetz* 84-§ ga o'xshash qat'iy javobgarlik (strict liability) rejimi belgilansin: ishlab chiqaruvchi, importchi va vakolatli vakil aybdorligidan qat'i nazar javob beradi.

Ikkinchidan, isbot yukining mutlaq holda jabrlanuvchi zimmasiga yuklatilishi farmatsevtika sohasi spetsifikasiga zid keladi, chunki klinik va farmakologik dalillar deyarli butunlay ishlab chiqaruvchi qo'lida bo'ladi. Taklif: FK ga "Farmatsevtik mahsulot bilan bog'liq sababiyat prezumpsiyasi" moddasi kiritilsin (nemis 84(2)-§ AMG va EU 2024/2853 10-moddasi modeli bo'yicha): agar dori vositasi konkret holatda zararni keltirib

chiqarish qobiliyatiga ega bo'lsa, sababiy bog'liqlik prezumpsiya qilinadi; ishlab chiqaruvchi va importchi sud talabiga binoan klinik sinovlar, sifat nazorati, *pharmacovigilance* hujjatlarini taqdim etishga majbur bo'lsin.

Uchinchidan, O'RQ-399/O'RQ-928 Qonuniga "Farmatsevtik tadbirkor uchun majburiy professional javobgarlik sug'urtasi" moddasini kiritish (AMG 94-§ ga muvofiq). Minimal qoplash darajasi: bir holat uchun 2 mlrd so'm, yillik agregat 50 mlrd so'm. Bu *Doc-1 Max* kabi fojialar vaqtida jabrlanuvchilarning kompensatsiya olishini ishlab chiqaruvchining moliyaviy holatidan mustaqil qiladi. Sug'urta to'lashga obyekt yo'q importchilar uchun 2026-yil 5-may Farmoni bilan ta'sis etilgan Tibbiyot tashkilotlarini rivojlantirish jamg'armasi (President of the Republic of Uzbekistan, 2026a) doirasida kafolat fondi tashkil etilsin.

To'rtinchidan, klinik tadqiqotlar uchun majburiy sug'urta talabi joriy etish maqsadga muvofiq (EU 536/2014 Reglamentining 76-moddasiga muvofiq): har qanday klinik sinov ishtirokchisining sog'lig'iga yetkazilishi mumkin bo'lgan zarar uchun sug'urta yoki bank kafolati shakldagi kompensatsiya mexanizmi bo'lishi shart, minimal qoplash bir ishtirokchi uchun 1 mlrd so'm.

Beshinchidan, 2026-yil 5-maydagi qaror (President of the Republic of Uzbekistan, 2026b) bilan tibbiyot tashkilotlari uchun yagona litsenziya talablari va xalqaro akkreditatsiya tizimi joriy etilayotgan sharoitda, sog'liqni saqlash boshqaruvi samaradorligini oshirishga qaratilgan Farmon (President of the Republic of Uzbekistan, 2026c) doirasida farmatsevtik ko'rsatmalar va klinik protokollarning huquqiy maqomini aniqlashtirish, ularga rioya qilmaslik fuqarolik javobgarligining mustaqil asosi sifatida e'tirof etilishi maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga, Oliy Sud Plenumining 2000-yil 28-aprel 7-son qarori bugungi sharoitlarga moslashtirilib, farmatsevtik mahsulot kamchiliklari bilan bog'liq sud amaliyotini birlashtirgan yangi tushuntirish qarorining qabul qilinishi maqsadga muvofiqdir.

Mazkur takliflarni amalga oshirish O'zbekiston farmatsevtika sohasini xalqaro huquqiy standartlar darajasiga ko'tarishga, fuqarolarning sog'liq va hayotga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqini real ta'minlashga, mamlakatning xalqaro klinik tadqiqotlar va investitsiyalar uchun jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi.

REFERENCES

- AKIpress News Agency. (2024, July 3). *Court upholds sentence for seven defendants in case of deaths of 68 children after taking Doc-1 Max in Uzbekistan*. <https://akipress.com>
- American Law Institute. (1998). *Restatement (Third) of Torts: Products liability*. American Law Institute Publ.
- Deutsch, E., & Spickhoff, A. (2014). *Medizinrecht: Arztrecht, Arzneimittelrecht, Medizinprodukte-recht und Transfusionsrecht* (7th ed.). Springer. <https://doi.org/10.1007/978-3-642-38149-2>
- DLA Piper. (2023, April). *Italy transposes EU Directive 2020/1828 on representative action for the protection of consumers' collective interests*. <https://www.dlapiper.com>
- European Medicines Agency. (2024, September 9). *Reflection paper on the use of artificial intelligence (AI) in the medicinal product lifecycle* (EMA/CHMP/CVMP/83833/2023). <https://www.ema.europa.eu>
- Fierce Pharma. (2024, October). *GSK agrees to pay \$2.2B to settle 80K Zantac lawsuits*. <https://www.fiercepharma.com>
- Geistfeld, M. A. (2020). *Principles of products liability* (3rd ed.). Foundation Press.
- Goldberg, J. C. P., & Zipursky, B. C. (2020). *Recognizing wrongs*. Harvard University Press. <https://doi.org/10.4159/9780674245358>
- Health Resources and Services Administration. (2025, September 1). *National Vaccine Injury Compensation Program: Data and statistics*. <https://www.hrsa.gov/sites/default/files/hrsa/vicp/vicp-stats-09-01-25.pdf>
- Hodges, C. (2014). *Product liability: European laws and practice*. Sweet & Maxwell.
- Howells, G., & Twigg-Flesner, C. (2024). *Adapting consumer law to new technologies* (SSRN Working Paper No. 4995860). https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=4995860

- International Comparative Legal Guide. (2026). *Drug & medical device litigation laws and regulations report 2026: Germany*. Global Legal Group. <https://iclg.com>
- Kun.uz. (2024, January 11). *Doc-1 Max case: The number of victims has reached 68 people, two more people have been charged*. <https://kun.uz/en/news/2024/01/11/doc-1-max-case>
- Mokhov, A. A. (2017). Pharmaceutical law as a phenomenon. *Current Issues in Russian Law*, 12(85), 54–62. <https://doi.org/10.17803/1994-1471.2017.85.12.054-062>
- Mungwira, R. G., Guillard, C., Saldaña, A., Okabe, N., Petousis-Harris, H., Agbenu, E., Rusakaniko, S., & Pal, S. N. (2020). Global landscape analysis of no-fault compensation programmes for vaccine injuries: A review and survey of implementing countries. *PLOS ONE*, 15(5), e0233334. <https://doi.org/10.1371/journal.pone.0233334>
- Pharmaceuticals and Medical Devices Agency. (2023, November). *Pharmaceuticals and Medical Devices Safety Information No. 405*. <https://www.pmda.go.jp/files/000265346.pdf>
- President of the Republic of Uzbekistan. (2026a, May 5). *On additional measures to support the private sector in healthcare*. (Decree № PD-74) <https://president.uz/oz/lists/view/9178>
- President of the Republic of Uzbekistan. (2026b, May 5). *On additional measures to improve the quality of healthcare services*. (Resolution № PR-170) <https://president.uz/oz/lists/view/9179>
- President of the Republic of Uzbekistan. (2026c, May 5). *ON measures to improve management efficiency in the of healthcare*. (Decree № PD-77) <https://president.uz/oz/lists/view/9180>
- Price, W. N., II, Gerke, S., & Cohen, I. G. (2022). *Liability for use of artificial intelligence in medicine* (SSRN Working Paper No. 4115538). <https://doi.org/10.2139/ssrn.4115538>
- Republic of the Republic of Uzbekistan. (1997). *Civil Code of the Republic of Uzbekistan (Part II)*. <https://lex.uz/docs/-180552>
- Republic of the Republic of Uzbekistan. (2016). *On medicines and pharmaceutical activity (Law No. LRU-928)*. <https://lex.uz>
- Niehoff, L., & Hilger, D. (2025, January 6). New Product Liability Directive 2024/2853: New product liability risks for products in the EU. Taylor Wessing. <https://www.taylorwessing.com/en/insights-and-events/insights/2025/01/di-new-product-liability-directive>
- U.S. Food and Drug Administration. (2025, January 7). *Considerations for the use of artificial intelligence to support regulatory decision-making for drug and biological products: Draft guidance for industry* (Docket No. FDA-2024-D-4689). <https://www.fda.gov>
- Ulfbeck, V., Hartlev, M., & Schultz, M. (2012). Malpractice in Scandinavia. *Chicago-Kent Law Review*, 87(1), 111–129.
- Verified Market Reports. (2024). *Product liability insurance market size, potential, industry growth & forecast*. <https://www.verifiedmarketreports.com>
- Wagner, G. (2002). Das Zweite Schadensersatzänderungsgesetz [The Second Damage Compensation Amendment Act]. *Neue Juristische Wochenschrift*, 55(28), 2049–2064.
- World Health Organization. (2024). *Substandard and falsified medical products*. <https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/substandard-and-falsified-medical-products>

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

2026-yil maxsus son

VOLUME 10 / SPECIAL ISSUE / 2026

DOI: [HTTPS://DX.DOI.ORG/10.51788/TSUL.ROLS.2026.10.SI](https://dx.doi.org/10.51788/TSUL.ROLS.2026.10.SI).